

## THE POSITIVE AND NEGATIVE EFFECTS OF GLOBALIZATION ON YOUTH SPIRITUALITY

**Boliboyeva Vasila Sodiq qizi**

Student of the 1st year, Islamic Economics and International Relations International  
Islamic Academy of Uzbekistan

Scientific Supervisor: **Sharipova Guzal Usmanbekovna**

Doctor of Philosophy (PhD) in History Department of Islamic History and Source  
Studies International Islamic Academy of Uzbekistan

**Abstract:** *This article analyzes the impact of the globalization process on the spiritual life of young people. It highlights the positive aspects of globalization - expanding the worldview of young people, creating opportunities to master modern knowledge and technologies, and strengthening international cultural ties. At the same time, the negative consequences of globalization are also considered, including the analysis of the risks of indifference to national values, language and traditions, lack of spirituality and cultural alienation. The work also suggests ways to preserve and strengthen the spirituality of young people.*

**Keywords:** *Globalization, youth, spiritual, technology, life, moral, global, internet, cultu education, political culture, modern culture, upbringing.*

### GLOBALLASHUVNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA KO'RSATAYOTGAN SALBIY VA IJOBIY TOMONLARI

**Boliboyeva Vasila Sodiq qizi**

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: **Sharipova Guzal Usmanbekovna**

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
"Islom tarixi va manbashunoslik" kafedrasining tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviy hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Unda globallashuvning ijobiy jihatlari-yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishi, zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratishi, xalqaro madaniy aloqalarni kuchaytirishi kabi omillar yoritilgan. Shu bilan birga, globallashuvning salbiy oqibatlari ham ko'rib chiqiladi, jumladan, milliy qadriyatlar, til va an'analarga befarqlik, ma'naviyatsizlik va madaniy begonalashuv xavflari tahlil qilinadi. Ishda yoshlar ma'naviyatini asrab-avaylash va mustahkamlash yo'llari ham taklif etiladi.*

**Аннотация.** *В статье анализируется влияние процесса глобализации на духовную жизнь молодёжи. Отмечаются положительные стороны глобализации – расширение мировоззрения молодёжи, создание возможностей для овладения современными знаниями и технологиями, укрепление международных культурных связей. В то же время рассматриваются и негативные последствия глобализации, включая анализ рисков равнодушия к национальным ценностям, языку и традициям, бездуховности и культурной отчуждённости. В работе также предлагаются пути сохранения и укрепления духовности молодёжи.*

**Kalit so'z:** *Globallashuv, yoshlar, ma'naviy, texnologiya, hayot, axloqiy, global, talim, madaniyat, tarbiya, internet, zamonaviy madaniyat, siyosiy madaniyat.*

**Ключевые слова:** *Глобализация, молодежь, духовный, технология, жизнь, моральный, глобальный, образование, культура, воспитание, интернет, современная культура, политическая культура.*

Globalashuv jarayoni bugungi kunda barcha sohalarga, jumladan, yoshlar ma'naviy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar dunyoqarashi, ma'naviyati va axloqiy tamoyillari globalashuv jarayonida shakllanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha... globalashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. "[1].

“Global” fransuzcha “global” degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog'liq” ma'nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so'zi lotincha “globus” ya'ni “shar” so'zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo'llagan.[2; 17-b] Zamonaviy dunyoda jamiyatlar rivojlanishini globalashuv jarayonlarining insonlar tafakkuri, ma'naviyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sirisiz tasavvur qilish qiyin. Insoniyatning kelajak taraqqiyoti globalashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, maqsadlari, qadriyatlari, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va jamiyat bilan munosabatlaridagi o'zgarishlarga bog'liq. Shu bois, ijtimoiy va gumanitar fanlar globalashuvning jamiyat hayotining nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy, balki madaniy hamda mafkuraviy jabhalariga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar insonning fikrlash tarzi va qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyat rivojlanishining yangi yo'nalishlarini belgilamoqda.

Globalashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o'rni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Biroq bu jarayonlarning inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'siri masalasiga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Vaholanki, g'oyalar globalashuvi uzoq tarixga ega murakkab jarayondir. Globalashuv faqat XX asr oxirida boshlanmagan. Tadqiqotchilar so'nggi 500 yil davomida insoniyat bu yo'nalishda izchil harakat qilganini ta'kidlashmoqda. Yangi dunyoning kashf etilishi, Yer yuzining muntazam transport yo'llari bilan bog'lanishi, migratsiya

oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi kabi hodisalar shakllanayotgan globallashuvning bosqichlari edi. O'tgan asrning so'ngida bu jarayon misli ko'rilmagan tezlikda jadallashdi va globallashuv davri deb nom oldi. Bu davr insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi, dunyo miqyosida g'oyalar, madaniyatlar va texnologiyalarning tez almashinuviga olib keldi. Eng avvalo, ushbu muammo xususida gap ketganda, shu'ni ta'kidlash kerakki, "Globallashuv jarayoning tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkonoyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda. [3;33-B]

Endilikda jahonning chekka o'lkalari yoki xilvat burchaklari mavjud emas. Barcha mintaqalar jahon iqtisodiyoti va yagona axborot maydonining tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Hududlar va masofalar o'zining asl ma'nosini yo'qotadigan chegarasiz dunyo tushunchasi real shakl-shamoyil kasb etib bormoqda.

Zero, bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH. Mirziyoyev: "globallashuv hodisalarning o'zi alohida mavzuga aylanadi va bu haqida alohida globalistika fani shakllanadi. Global jarayonlar va muammolarning paydo bo'lishi tarixi, bugungi xususiyatlari va darajalari, milliy hamda umuminsoniy jihatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor ortib bormoqda." [4;377-B]

Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Globallashuv aspektlarini o'rgangan Habibuli Haka Hongira shunday deydi: "Globallashuv g'alabaga, yo'qotishlarga olib keladigan jarayondir. Ba'zilar globallashuvni o'z yo'lidagi poyezd sifatida ko'rsalar, boshqalar uni iqtisodiy o'sish va modernizatsiyaga olib keladigan foyda manbai deb bilishadi." Hozirgi davrda xalqaro makonda ko'p tarmoqli, integratsiya, hamkorlik aloqalarining kengayishi, global ahamiyatga molik yangi

umuminsoniy g'oyalarning paydo bo'lishi va ularni targ'ibot -tashviqot qilish texnologiyalarning takomillashuvi kabi omillar globallashuvning asosiy sabablari sifatida nazariy jihatdan asoslanmoqda.[5.144-B]

Globallashuvning salbiy jihatlarini xarakterlovchi asosiy omil sifatida “ommaviy madaniyat “elementlarining keng tarqalib borayotganini misol keltirish mumkin .Ba’zi respublikamiz olimlari nuqtayi nazariga ko‘ra, globallashuv sharoitida milliy g‘oyaga zid, ma’naviy qadriyatlarimizga putur yetkazadigan tashqi ta’sirlar asosan “ommaviy madaniyat”ni tarqatishga bo‘lgan intilishlar hosilasidir [9; 144-b]. Globallashuv tezkor va shiddatli tashqi ta’sirlar davri bo‘lishi bilan birga, muntazam ravishda tizimli olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy, profilaktika va targ‘ibot-tashviqot jarayonini ifoda etadi. B.Umarov, Sh.Jabborovlarning fikricha, globallashuvning ma’naviyatga salbiy ta’sirini bartaraf etish, ayniqsa, g‘oyalar kurashi davrida yoshlar dunyoqarashining to‘g‘ri shakllanishini ta’minlash uchun milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tizimidagi barcha tarbiya elementlaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz zarur.[10;47-B]

Globalizm -milliy hayotga tahdid demakdir”, -deb yozadi siyosatshunos Olim Toshboev.[11; 20-b] Bu fikrga rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovevning fikri mos keladi

“Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning, qarshilik ko‘rsatishdan boshqa yo‘lini ko‘rmayapman. Faqat qarshilik”, [12; 82-b] -deb ta’kidlaydi. Albatta, bu biroz munozarali g‘oya. Chunki globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayriixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Globallashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli tabiiy, ijtimoiy bog‘liqliklarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayoni mafkuralashishdan, uning maqsadlaridan xoli bo‘lishi kerak. Globallashuv, eng avvalo, milliy g‘oyani qattiq sinovdan o‘tkazadi,

so'ng uni obdon chiniqtirib, toblaydi. Bordi-yu mafkuraviy immunite susayib zaiflashsa, milliy g'oya globallashuv jarayonining qurboniga aylanadi.

Demak, yoshlarimiz ma'naviyatida g'oyaga qarshi tura oladigan kuchli milliy g'oya bo'lishi kerak. O'zbekistonda chiqarilayotgan kitoblar, jurnallar va gazetalarni sotib oluvchilar soni rus, ingliz va boshqa tillarda chiqarilayotgan kitoblarni sotib oluvchilarga qaraganda 5-6 marta kam. Eng xarakterli jihati shundaki, aholi, ayniqsa yoshlar sotib olayotgan rus va xorijiy tillardagi kitoblar, jurnallar va gazetalari milliy nashrlarimizdan bir necha barobar, qimmat turishiga qaramasdan ularni sotib olmoqdamiz. Demak, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ehtiyojlari yetarlicha qondirilmayapti. Bu esa xorij g'oyalarining bemalol kirib kelishiga imkoniyat yaratmoqda. Lekin, hukumatimiz tomonidan yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish maqsadida "Yosh kitobxon" va shunga o'xshash ma'naviy-ma'rifiy tadbir va tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-sonli "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[14] gi qaroriyoshlarimizning ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekistonga tashqaridan ijobiy g'oyalar bilan birgalikda yashash turmush tarzimizga, yoshlar ma'naviyatiga zid bo'lgan turli xil yot va zararli g'oyalar kirib kelmoqda. Darhaqiqat Inson qalbida ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, johillik, yovuzlik, xudbinlik, loqaydlik kabi jamiyatga xavf soladigan illatlar shunchalik chekinadi va ular o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, bunyodkorlik, tuyg'ulari qaror topadi. Yurtning ertangi kuni, taraqqiyoti yoshlar zimmasidadir. Hozirgi vaqtda yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Yurtboshimiz aytganlaridek: "Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot turli xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga

qaratilgan g'arazli intilishlar, mafkuraviy tahdidlar tobora kuchayib borayotgani barchani yanada hushyor va ogoh bo'lishga undaydi.

Globalashuvning ijobiy jihatlaridan biri sifatida, globalashuv bu-yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Turli mamlakatlardagi yangiliklar, ilmiy yutuqlar va madaniy jarayonlar haqida tezkor ma'lumot olish imkoniyati ularning fikr doirasini boyitadi. Internet orqali xorijiy ta'lim platformalariga kirish, bepul kurslarda o'qish, chet tillarini o'rganish yoshlar intellektual salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu esa zamonaviy, bilimli va global fikrlay oladigan yoshlarning shakllanishiga yordam beradi. Internet, madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va global madaniyat yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilish orqali globalashuvning salbiy ta'sirlarini yumshatish mumkin. Milliy ma'naviyatni mustahkamlash va yoshlarning milliy o'zligini anglashini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish muhim. Bu jarayonda yoshlar tarbiyasi ham muhim. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev aytganidek: "Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala –bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim –yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? **Tarbiya**, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan." [19]. Negaki, ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan yoshlar, xalq va millat taraqqiy etadi, kelajakka ishonch bilan qadam tashlaydi. Aksincha, ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat tanazzulga yuz tutadi.

Milliy ma'naviyatni mustahkamlash va yoshlarning milliy o'zligini anglashi ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish muhim. Kelajakda bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Bu orqali milliy merosning boyitilishi va saqlanishi ta'minlanadi.

Hamda, globallashtirish sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda ilmiy izlanishlarni kuchaytirish orqali jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish yoshlar ma'naviyatiga ham katta imkoniyatlar, ham jiddiy sinovlar olib kelmoqda. Ijobiy tomoni – bilim, dunyoqarash, madaniy bag'rikenglik va intellektual o'sishni rag'batlantirsa, salbiy tomoni – milliy qadriyatlardan uzoqlashish, axborot xurujlari va ma'naviy bo'shliqni kuchaytiradi. Shu sababli globallashtirish jarayonining ijobiy jihatlarni mustahkamlash, salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun oilada, ta'lim muassasalarida va jamiyatda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish muhimdir. Yoshlar global dunyoda yashar ekan, o'z milliy qadriyatlariga sodiq, zamonaviy bilim va madaniyatga ega bo'lgan barkamol shaxs sifatida shakllanishi kerak.

#### **Адабиётлар/Литератур/References**

1. Sh. Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqidan. 12.01.2024.
2. Habibul Haque Khondker. Globalization as Globalization: Evolution of a Sociological Concept// Bangladesh e-Journal of Sociology, Vol.1.No.2.-Singapore: National University of Singapore, July, 2004, -P, 1-9,
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent: 2022- yil. O'zbekiston nashriyoti, 2021. B. 387.
4. SCIENCE PROBLEMS. UZ- Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари No S/5(4) –2024 48-B.
5. Waters M. Globalization, -L; N. Y. Routledge, 1996. -XIV-185 p.